

# **TIKUVCHILIK GAZLAMALARINING FIZIK XOSSASI,**

## **O'TKAZUVCHANLIK XUSUSIYATI**

**A.Eshmamatov, B.B. Ochiladiyev (TerDU)**

### ***Anotatsiya***


*Fizik xususiyatlar gazlamalarning gigroskopikligi, havo va bug' o'tkazuvchanligi, chang yutuvchanligi, elektrlanuvchanlidi, optik va issiqni saqlash xususiyatlaridan iborat.*

Shulardan asosiy xususiyatlardan biri bu o'tkazuvchanligidir. Gazlamalarning o'zidan havo, suv, gaz, bug', chang, tutun, suyuqliklar, radiaktiv nurlarni o'tkazish qobiliyatiga o'tkazuvchanlik deb ataladi.

Havo o'tkazuvchanligi-namunaning o'zidan havo o'tkazish qobiliyati bo'lib, havo o'tkazuvchanlik koeffitsienti bilan baholanadi. Havo o'tkazuvchanlik koeffitsienti namunaning ikki tomonidagi havo bosimining ma'lum bo'lgan farli sharoitda 1 sekund vaqt ichida  $1 \text{ m}^2$  yuzadan o'tgan havo hajmining miqdorini ko'rsatadi.

$$V_{\Delta r} = \frac{V}{F_T}$$

Sinovlarni o'tkazganda namunaning ikki tomonidagi havo bosimining farqi  $\Delta r = 5 \text{ mm}$  suv ustuni yoki  $49 \text{ Pa}$  ga teng. Bunday farq kiyim ostidagi havo bosimi bilan atrofdagi havo bosimi farqi mos keladi. Havo o'tkazuvchanlik gazlamalarning tola tarkibi, pardozlash turi va zichligiga bog'liq. Havo o'tkazuvchanlik bir nechta asboblarda aniqlanadi. Ularning ishslash usuli 1-rasmda ko'rsatilgan. Gazlamadan qirqilgan namuna (2) kamera (3) ustida maxkamlangan va shamolparrak yoki nasos yordamida kameradagi havo bosimi pasaytiriladi. Kameradagi va atrof-muhitning havo bosimi farqini manometer (1) ko'rsatadi. Namunadan o'tgan havo hajmi o'lchagich (4) bilan aniqlanadi.



**1-rasm.Gazlamalarning havo o'tkazuvchanligini aniqlash asbobining shakli.** 1-monometr; 2-namuna; 3-kamera; 4-havo o'lchagich.

Gazlamalarning suv o'tkazuvchanligi-bu ma'lum darajadagi bosim ta'sirida o'zidan suvni o'tkazish qobiliyati. Bu xususiyat suv o'tkazuvchanlik koeffitsienti bilan baxolanadi. Suv o'tkazuvchanlik koeffitsienti  $B_n$  esa bir sekund davomida bir kvadrat metrga teng gazlama yuzasidan o'tgan suv hajmining miqdorini ko'rsatadi.

$$B_n = \frac{B}{F T}$$

Uni aniqlash uchun  $5 \times 10^3$  Pa ga teng bo'lган bosim ostida hajmi  $0.5 dm^3$  bo'lган suv gazlamadan o'tganda sarflangan vaqt o'lchanadi.

#### Adabiyot

1. T.A.Ochilov, N.G.Abbosova, F.J.Abdullina, Q.I.Abdulniyozov  
“Gazlamashunoslik” Toshkent-2011
2. Abbasova N.G, Maxkamova SH.M, Ahmedov B.B, Ochilov T.A “Yengil sanoat mahsulotlari materialshunosligi”. T., “Aloqachi”, 2005